



Sirojiddin Sayyid she'riyatida onomastik birliklar tahlili

Umida bonu Tohirovna Jovbo'riyeva –

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti 231 - amaliy filologiya guruhi talabasi. E-mail: ujovboriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlardan biri Sirojiddin Sayyidning "Uyingdagi beshiklar" nomli she'riy to'plamida qo'llanilgan, she'rning badiiyligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan bo'lgan onomastik birliklar, xususan, antroponim, toponim, mifonimlar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, onomastik birlik, metodologiya, antroponim, toponim, mifonim.

Аннотация: В данной статье представлена информация об ономастических единицах, в частности, об антропонимах, топонимах и мифонимах, которые являются одними из основных инструментов, способствующих дальнейшему повышению художественной ценности стихотворения, использованных в поэтическом сборнике «Колыбели в твоём доме» Сироджиддина Сайида, одного из поэтов, занявших свое место в узбекской поэзии.

Ключевые слова: ономастика, ономастическое единство, методология, антропоним, топоним, мифоним.

Annotation: This article provides information about onomastic units, in particular, anthroponyms, toponyms and mythonyms, which are among the main tools that serve to further enhance the artistic quality of the poem, used in the poetry collection "Cradles in Your Home" by Sirojiddin Sayyid, one of the poets who has taken his place in Uzbek poetry.

Keywords: onomastics, onomastic unity, methodology, anthroponym, toponym, mythonym.





KIRISH VA DOLZARBLIGI.

O'zbek tilshunosligida muhim bo'lgan asosiy tadqiqot ishlari o'tgan asrning 60-yillarda olib borildi. Xususan, shu davrda tilshunoslikka qator yangi fanlar kirib kela boshladi. Bu fanlar doirasiga psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika va hamda onomastika kabi fanlar kiradi.

Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish tarixdan mavjud bo'lib, kishi ismlari, joy nomlari tarixi, etimologiyasini o'rganish jarayoni o'tgan asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Onomastika – yunoncha “onomastike” so'zidan olingan bo'lib, “nom qo'yish san'ati” degan ma'noni anglatadi. 1. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi. 2. Muayyan tilda mavjud bo'lgan barcha atoqli nomlar majmuyi[1.127-128].

Bugungi kunda onomastik birliklarni o'rganish masalasi tilshunoslarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Asarlarda va she'riyatda qo'llanilgan antroponim, toponim va boshqa mikro va makro ko'lamlarni tadqiq qilish tilimizda mavjud, ammo tadqiq qilinmagan atoqli otlarni o'rganish Onomastika fanining dolzarb muammolaridan biridir.

METODLAR VA O'RGANISH DARAJASI.

Taniqli olim E.Begmatov o'zining “Onomastika” nomli qo'llanmasida o'zbek ismlari haqida alohida to'xtalib o'tgan. “Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir”[2].

O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A. Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Xusanov, S. Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov, B.Urinboyev, T.Nafasov, B. Nafasova, O.Holiqov) hamda ko'p sonli ilmiy hamda ilmiy ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi³. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Xusanov, G.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O'rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir[2].





TADQIQOT NATIJALARI.

Shoir Sirojiddin Sayyidning “Uyingdagi beshiklar” nomli she’riy to‘plamida bir qator onomastik birliklar berb o‘tilgan.

Bo‘ronlari tulporlarga
Tunlar yol bo‘lgan.
Bir o‘gloni chinor, biri
Majnuntol bo‘lgan.
Boburlari otdan tushmay
Qaddi dol bo‘lgan,
Moziylari, chinorlari
Jahonim, Vatan!

Bobur – “Boburnoma” asari muallifi, [shoir](#), [tarixchi](#), geograf, davlat arbobi, iste’dodli shoir va [boburiylar sulolasi](#) asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur[8]. Ushbu parchada vatan fidoiysi va tarixiy shaxs sifatida keltirilgan. Bobur ismining ma’nosi (o‘z.) –ma’nosi noma’lum. Ba’zi manbalarda: 1) yo‘lbars, arslon; 2) ulug‘, ulkan, buyuk; 3) tez gapiradigan odam ma’nolarida talqin qilingan [6].

Ne tong edi - izg‘irinlar
Zahrini totding
Dasturxonda muztar qoldi
Qandu novvoting.
Shahidlarning munglaridir
Har bir raboting,
Abadiy yod erur asli
Adabiyoting,
Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy ham
Usmonim, Vatan!

Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy, Usmon – XX asr O‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, milli adabiyotimizning buyuk siymolari hisoblanishadi.

Sirojiddin Sayyid o‘zining momosiga atab “Oybibi momo vidosi” nomli she’r yozgan. She’r sarlavhasida keltirilgan “Oybibi” antroponimiga to‘xtalsak. **Oybibi** - (o‘z.-hind) – oydek suluv va baland martabali qiz. Bibi hindchadan olingan buvi degan ma’noni bildiradi. Buvisidek umri uzoq bo‘lishiga niyyat qilib qo‘yiladi. Bilamizki,





onomastika sohasida “toponimik indikator” tushunchasi mavjud bo‘lib, O‘.X.Rajabov toponimik indikatorlar mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan[3.230]. Ism ikki qismdan tarkib topgan. “Oy” va “-bibi”. Birinchi qism norasmiy motivli kosmonim hisoblansa, ikkinchi qism antroponimik indikator vazifasini o‘taydi.

She’riy to‘plamda keltirilgan yana bir antroponim – **Gulpari** ismidir. “Bolalik. Qo‘shni qiz Gulpari” she’rida keltirilgan ushbu birlik fors-tojikchadan gul va parilardek zebo qiz yoki parilarning go‘zali ma’noni anglatadi[9].

Yo‘qotganim oq tulporim, ko‘k tulpor?

Men bilmayman, nima bo‘ldi so‘ng tulpor.

Dillarimda yig‘lab o‘tar o‘n tulpor,

Bellarimda o‘n Alpomish yig‘laydi.

“Alpomish” - o‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. “Alpomish”ning qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan. O‘zbeklar “Alpomish”, qoraqalpoqlar “Alpamis”, qozoqlar “Alpamis batir”, oltoyliklar “Alp Manash”, qozon tatarlari “Alpamasha”, boshqirdlar “Alpamisha va Barsin hiluu” deb nomlaganlar[2].

Havodagi jivir-jivir to‘rg‘aylar,

Yana ming yil shu alfozda turgaylar.

Ko‘nglim bo‘lib alar seni ko‘rgaylar,

Yulduz uchsa bunda kuygan kuragim

Surxon desam, zirqiraydi yuragim.

Ushbu she’riy parcha Erkin A‘zamga bag‘ishlangan “Surxon qo‘shig‘i” she’ridan olingan. Parchadagi **Surxon** toponimi respublikamizning janubiy viloyatlaridan biri hisoblanib, “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha izohlanadi. Surxondaryo – O‘zbekiston janubidagi daryo (qadimda – Chaganrud). Ehtimol, daryo dastlab Surxob deb nomlangan (“qizil daryo”) va vaqt o‘tishi bilan Surxondaryoga o‘zgargan. Ushbu taxmin o‘rinlidir, chunki uning yuqori qismi (Denov shahriga qadar) Qizilsuv deb nomlanadi (“qizil daretnonim bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, turkman urug‘laridan biri surx(i) deb nomlangan, -an – ko‘plik qo‘shimchasi. Surx komponenti ko‘p bora takrorlanadi: Surxoni (Jarqo‘rg‘on tumani), Pasurxi (Boysun tumani), Surxiyon (Buxoro viloyati Kogon tumani)[4:446-447]. Surxondaryo shoirning tug‘ilib,





o'sgan o'lkasidir. She'rlarda esa bu joy "mard o'g'lonlar yurti", "yurakni zirqiraturvchi" ma'nolarda kelgan.

She'riy to'plamdan o'rin olgan keyingi toponim bu **Qumqo'rg'on**dir.

Qumqo'rg'onning olmalari tilsim ekan,

Oqinimi yo kizilini olsammikan?

Va lekin u olmasin oldirmaydi,

Birovlarga zor qildirib qoldirmaydi.

Bu parcha "Qumqo'rg'on olmalari" nomli she'rdan olingan. Qumqo'rg'on bu Surxondaryo viloyati tumanlaridan birining nomi. Qumqo'rg'on – nomi ikki tarkibiy qismdan iborat: qum va qo'rg'on. Qum – bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi. Qum – joy nomlari tarkibida ancha sermahsul qo'shimcha. Mazkur qo'shimcha aholi turar joylari turini bildiruvchi qal'a, qo'rg'on, rabot, guzar kabi so'zlar bilan birikib toponimlar hosil qilgan. E'tiborli tomoni shuki, bu turdagi nomlar tarkibidagi mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi bo'lgan qum so'ziga daxli yo'q. Aniqroq qilib aytganda, qumloq joy ustida bino, imorat qurish quruvchilik amaliyotiga xos emas. Binobarin, tuman nomini qumli, qum ko'p joyda qurilgan qo'rg'on deyish xato izoh hisoblanadi. Demak, uzoq qo'llanish jarayonida nom transformatsiyalashgan va shaklan o'zgarib boshqa ma'no kasb etgan bo'lishi mumkin. Masalan, xum – g'isht, koshin, sopol idishlar pishiriladigan qurilma, xum so'zining o'zgargan shakli – qum. Mazkur izohga asoslanib aytish mumkinki, Qumqo'rg'on – xumdonlarda g'isht, koshin, sopol idishlar pishiriladigan joydagi qo'rg'on. Nomning dastlabki shakli – Xumqo'rg'on, uning o'zgargan shakli – Qumqo'rg'on[4:383]. T.Nafasovning "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati"da ham huddi shu ta'rifni ko'rishimiz mumkin. Qumqo'rg'on Surxondaryo viloyatidagi tuman. Xum pishirilgan joydagi qo'rg'on, xumdonli qal'a[5:53].

Shoirning she'riy to'plamidan biri "Dashnobod anoriga" deya nomlangan. **Dashnovot** Sariosiyo t. qishloq. Dasht (ekin ekilmagan, yaylov) rabot [f-t] dashtda qurilgan rabot[5:20]. Ushbu nom xalq tilida fonetik o'zgarishga uchrab hozirgi "Dashnobod" ko'rinishiga kelib qolgan. Bu nom asli gidronim bo'lib xizmat qilgan. Dashnobod – Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi soy, To'polondaryoning chap irmog'i[8].





Ma'lumki, she'riyatda afsonaviy shaxslar va mifologik obrazlardan foydalanish, she'ning yanada ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, She'riyatda mifologik motivlar orqali milliy an'analar, qadriyatlar va badiiy tafakkur ifodalanadi. Sirojiddin Sayyid qalamiga oid navbatdagi she'riy parchada **"Majnun"** obrazi o'rin olgan.

Majnunday – ketolmaysan,
Biror jonzod topilmas.
Ohulari yo'q tog'u
Toshingdadir ayriliq.

Parcha mazmuni ayriliq doimo inson bilan birga bo'lishi, agar Majnun kabi hamma narsani tark etib ketsangda ayriliq insonni tark etmasligi berib o'tilgan. Majnun obrazining she'riyatda qo'llanishi shundanki, sharq adabiyotida bu obraz hijron va ayriliqning kechsiz timsoli hisoblanadi. Ushbu mifologik birlik arabchadan olingan bo'lib, telba, devona, aqldan ozgan; muhabbat gadosi ma'nolarini bildiradi. "Layli va Majnun" dostonining bosh qahramoni – Majnun nomidan olingan ism[9].

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Onomastik birliklarni o'rganish nafaqat tilimizda yangi so'zlarni o'rganishga emas, balki o'zbek tili leksikografiyasining boyib borishiga xizmat qiladi. Nomlar orqali biz tariximizni va tilimiz o'tmishini o'rganib boramiz.

O'zbek tili onomastik ko'lamga nihoyatda boydir. Tilimizdagi onomastik birliklar murakkab va kengdir. Ularning sinchiklab to'plash, aniq tarzda tadqiq etish o'zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Onomastik ko'lamga doir bunday tadqiqot ishlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Nomlarni tadqiq etish orqali madaniy va xalq tarixi, shu bilan birgalikda ularni kelajak avlodga yetkazish va uzoq vaqt tilimizda saqlab qolishning eng optimal usulidir.

Adabiyotlar:

1. A.Madvaliyev tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati.–T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 – 129 b.
2. Ravshanov D. T. Shafolat Rahmatullo Termiziy she'riyati onomastikasi. Filologiya fan. nom. diss. - Termiz.: 2023.





3. Begmatov E. A. O‘zbek tili antroponimikasi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti, 2013 – 264 b.
4. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at/tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
5. T Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati.- T: “Yangi asr avlodi”, 2007 – 88 b.
6. Begmatov E. A. O‘zbek ismlari ma’nosi: (izohli lug‘at). -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 – 608 b.
7. <https://ziyonet.uz/ru>
8. <https://www.wikipedia.org/>
9. <https://adliya.uz/uzb/inner-page/ozbek-ismlarining-izohli-imlo-lugati>

